



TARJIMADA EKVIVALENTLIK VA UNING TURLARI

Ulug'bek Yo'ldoshev Ravshanbekovich,
*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya: Mazkur maqola ekvivalentlikning mohiyati, tarjimada ekvivalentlikning ahamiyatini yoritib berishga bag'ishlanadi. Shuningdek, maqolada ekvivalentlik darajalari bo'yicha turlari, tarjima usuli sifatida tarjima jarayonida qo'llanishi borasida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: tarjima, ekvivalentlik, aslyiat matni, tarjima matni, usul, uslub, yondashuv.

Аннотация: Данная статья посвящена выяснению сущности эквивалентности, значения эквивалентности при переводе. Также в статье говорится о видах уровней эквивалентности и их использовании в переводческом процессе как методе перевода.

Ключевые слова: перевод, эквивалентность, оригинальный текст, переведенный текст, метод, стиль, подход.

Annotation: This article is dedicated to clarifying the essence of equivalence, the importance of equivalence in translation. The article also talks about the types of equivalence levels and its use in the translation process as a translation method.

Key words: translation, equivalence, source text, target text, method, technique, approach.

Ekvivalentlik – bu tarjima jarayonida eng ko'p murojaat etiladigan tushunchalardan biri bo'lib, u tarjimada muqobillik darajasini ko'rsatish bilan birgalikda leksik birliklarni aslyiat tilidan tarjima tiliga olib o'tish usuli sifatida ham foydalaniladi. Mazkur risolamizda ekvivalentlikning tarjimadagi aynan mana shu funksiyasi haqida so'z yuritimiz. J.Abdug'aniyevaning fikricha, ekvivalentlik tarjimada bir necha vazifalarni bajaradi, jumladan, u tarjimaning asosiy hodisasi hisoblanib, tarjimani o'rganishda katta samara beradi hamda tarjimalarni tahlil qilish uchun foydali kategoriyalar tarkibiga kiradi¹. Ekvivalentlik sohasi morfemalar, so'zlar, iboralar, jumlar, idiomalar va atamalar kabi til birliklarini qamrab oladi. J.Kaftfordning fikricha, tarjima amaliyotining asosiy muammosi tarjima tilida ekvivalentlar topishdir. Tarjima nazariyasining asosiy maqsadi tarjima ekvivalentligining tabiati va hodisalarining tavsifini berish².

¹ Abduganiyeva J.R. Consecutive Interpretation Quality Assessment Within Training Process. ЎзМУ хабарлари. – Тошкент, 2023. – №1/7. – Б. 22-25.

² Catford J.C. A Linguistic Theory of Translation. – Indiana: Oxford University Press, 1965. – P.21.





Tarjimonlar ekvivalentlik yondashuvidan foydalangan holda tarjima bilan o'z o'quvchilariga “standart” ta'sir ko'rsatishga harakat qiladilar. Shunga qaramay, ekvivalentlik tushunchasi bir nechta muammolarni keltirib chiqaradi, chunki biz uni turli xil uslublarda talqin qilishimiz mumkin. Kontekst kabi jihatlar xam ekvivalentlikda ko'rib chiqiladi. Shunga aloqador holda, J.Katford tarjimaga “bir tildagi matn xosil qiluvchi materiallarni boshqa tilda ekvivalent bo'lgan matn hosil qiluvchi materiallar bilan almashtirish yoki o'zgartirish”³, deb ta'rif beradi.

Ekvivalentlik borasida juda ko'p olimlar o'z qarashlarini bildirib o'tishgan. Bizning ham bu masalaga e'tiborimiz qaratilishi matnda uchraydigan turli lisoniy vositalarning morfologik, sintaktik, leksik, stilistik sathlardan asliyat va tarjima tillarida o'zaro ekvivalent yoki ekvivalenti mavjud bo'lmaslik holatlari bilan aloqadorlikda yuzaga keladi. Tarjimada ekvivalent jarayoni manba tilidan tarjima tiliga o'tishda o'quvchida to'g'ri ma'lumotni shakllantirish holatida sodir bo'ladi. Tarjimaning maqsadi asliyat va tarjima matni o'rtasida ekvivalentlik aloqasini o'rnatish bo'lganligi sababli, to'laqonli tarjimini ikki mezon bo'yicha baholash mumkin:

- 1) ishonchlilik va aniqlik (asliyat matnning ma'nosini unga fikr qo'shmasdan yoki olib tashlamasdan aniq tarjima qilish);
- 2) shaffoflik (ma'lum bir maqsadda tilning grammatik, sintaktik va idiomatik konvensiyalarini saqlab qolish).

S.Xalversonning yondashuviga ko'ra, “ekvivalentlik ikki ob'ekt o'rtasidagi munosabatlar sifatida belgilanadi va munosabatlar har qanday salohiyat, fazilatlar nuqtai nazaridan o'xshashlik, tenglik munosabatlari sifatida tavsiflanadi”⁴. Ekvivalent tarjima ikki til va ikki matn o'rtasida o'zaro shakli va mazmun jihatidan yaqinlik hosil qilganda yuzaga keladi.

A.Pinning ta'kidlashicha, “ekvivalentlik tarjimini belgilashi kerak, tarjima esa o'z navbatida ekvivalentlikni belgilaydi”⁵. M.Baker o'zining “In other words: A Coursebook on Translation” asarida tarjima jarayoniga tegishli turli bosqichlarda ekvivalentlik g'oyasini va tarjimaning barcha o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi. U ekvivalentlikni quyidagicha tasniflaydi:

³ O'sha asar. – P.20.

⁴ Halverson, S. The Concept of Equivalence in Translation Studies. Target1-2.1997. –PP. 207-233.

⁵ Pym, A. Natural and Directional Equivalence in Theories of Translation. 1992. – P.37.





1) soʻz darajasidagi ekvivalentlik. Soʻz darajasining ekvivalentini aniqlashda tarjimon bitta soʻzni koʻrib chiqishda jins va vaqt kabi bir qator omillarga eʼtibor berishi lozim boʻladi;

2) grammatik ekvivalentlik tillararo har xil grammatik kategoriyalar (son, zamon, aspekt, nisbat, shaxs-son, jins)da namoyon boʻladi;

3) matn ekvivalentligiga maʼlumot va ketma-ketlik boʻyicha manba matni va tarjima matni oʻrtasida tenglik kuzatilganda erishiladi. Tarjimon quyidagi uchta: “matn turi”, “tarjima maqsadi” va “kitobxon auditoriyasi” kabi omillaraga tayanib ish yuritish lozim boʻladi;

4) pragmatik ekvivalentlik orqali tarjimon kitobxonlarga boshqa millat madaniyatini tarjima matnida akslantirib berishga xarakat qiladi⁶.

Tarjimashunos olim Qudrat Musaev oʻzining “Tarjima nazariyasi asoslari” asarida ekvivalentlik va adekvatlik hodisalariga batafsil toʻxtalib oʻtgan. Asliyat va tarjima matnlarining oʻzaro muvofiqlik darajalarining besh turga ajratib, ularni misollar bilan yoritgan⁷.

Q.Musaevning fikricha, asliyat va tarjima matnlarining ekvivalentlik munosabatlari asosan quyidagicha namoyon buladi:

1) ekvivalentlikning birinchi turida tarjimalarning asliyatga uygunligi koʻz ilgamas darajada namoyon boʻladi. Mazkur tarjima turida asliyat va tarjima oʻrtasidagi munosabatlar asosan ushbu koʻrinishlarga ega boʻladi.

2) ekvivalentlikning ikkinchi turida tarjimaning asliyatga yaqinligi foydalanilgan til vositalari maʼnolarining bir xil emasligi bilan izohlanadi. Bu guruhda asliyat bilan tarjima matnlarini tashkil etadigan koʻpchilik soʻz va sintaktik qurilmalar oʻrtasida bevosita yaqinlik koʻzga tashlanmasa-da, ikki til matnlari ekvivalentlikning birinchi turiga nisbatan mazmunan koʻproq oʻxshashdir⁸.

3) ekvivalentlikning uchinchi turida asliyat va tarjima matnlari orasida quyidagi xususiyatlar koʻzga tashlanadi: ikki tilning mazmunan oʻzaro mos ifoda vositalari leksik tarkib va goho sintaktik qurilish jihatlaridan toʻla uygʻun boʻlmaydilar.

⁶ Baker M. In Other Words. A course book on translation. Second edition. – London and New York. Routledge: Taylor and Francis Group, 2011. -232 p.

⁷ Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: Fan, 2005. – B.54-59.

⁸ Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: Fan, 2005. – B.56.





4) ekvivalentlikning to'rtinchi turida asliyat va tarjima o'rtasidagi munosabat ikki til matnlari leksik tarkiblariining yanada ko'proq o'xshashligi bilan izohlanadi, ya'ni asliyatdagi ko'pchilik so'zlarga tarjima tilida mazmunan yaqin so'zlarni qidirib topish, shuningdek, tarjima tilida asliyatdagi ifoda vositasi singaktik qurilishiga moe sintaktik qurilishli ifoda vositasidan foydalanish zarurati paydo bo'ladi.

5) ekvivalentlikning beshinchi turda asliyat va tarjima matnlari orasidagi ekvivalentlik yuqori darajada namoyon bo'ladi. Ushbu ekvivalentlik turi ikki til matnlarning bir xil qurilishga egaligi, leksik tarkiblarining to'la o'xshashligi, asliyat asosiy qismlarining tarjimada batamom saqlanishi bilan ajralib turadi.

Ekvivalentlik tarjima jarayonida ikkita asosiy funksiyasi bajaradi. Birinchisi, asliyat va tarjima matnlarning o'zaro bir-biriga muvofiq kelish darajasi bo'lsa, ikkinchi funksiyasi ekvivalentlik tarjima usuli sifatida ko'rib, uning bir necha turlari mavjud. Asliyat va tarjima matnlari o'rtasidagi ekvivalentlik darajalari borasidagi masalalar bo'yicha ishimizning keyingi bobda batafsil to'xtalib o'tamiz.

Ekvivalentlik tarjima usuli sifatida bir necha turlarga bo'linadi va quyida ularning ayrimlarini havola etamiz.

Ekvivalentlik – Bunda xuddi shunday vaziyat uchun butunlay boshqa muqobil ibora ishlatiladi, ya'ni maqollar yoki idiomatik ifoda vositalari bularga misol bo'la oladi. Quyidagi so'zlar mazkur usul orqali ingliz tiliga tarjima qilinadi:

Commentator .n	A journalist who comments on current events a report by the political commentator in 'The Times' on unrest on the Government back benches	sharxlovchi
Commentary .n	1. a set of notes which comment on the main points of a document 2. A book which comments on the law	1.Sharh, izoh 2.Qonun sharhi
Commander .n	The officer in charge of a police district in London. Abbr Cmd., Cmdr, com., Com., Comdr	Boshliq, raxbar
Communiqué .n	an official announcement In a communiqué from the Presidential Palace,	Bayonnoma, bayonot



	the government announced that the President would be going on a world tour	
Compatriot . n	a person from the same country	Vatandosh

2.Funksional ekvivalentlik – Bunda tarjima tili leksikasida so‘z asliyat tili leksikasidagi bir xil vazifani bajaruvchi matn uslubiga mos keladigan so‘z bilan almashtiriladi. Quyidagi so‘zlar mazkur usul orqali ingliz tiliga tarjima qilinadi:

immigrant / noun/	a person who moves into a country to live permanently	muhojir
immigrate / verb/	to move into a country to live permanently	ko‘chirib ketish
vacuum cleaner	a <u>machine</u> that <u>cleans floors</u> and other <u>surfaces</u> by <u>sucking up dust</u> and <u>dirt</u>	chang yutgich
freezer	a <u>container, operated</u> by <u>electricity</u> , that <u>stores food</u> at a very <u>cold temperature</u> so that it <u>becomes solid</u> and can be <u>kept safely</u> for a <u>long time</u> :	muzlatgich
mixer	a <u>machine</u> that <u>mixes substances</u> :	aralashtirgich
printer	a <u>machine</u> that is <u>connected</u> to a <u>computer</u> and <u>prints</u> onto <u>paper</u> using <u>ink</u> :	chop ettirgich

3.Tasviriy ekvivalentlik – usulbda leksik birlikni bildiruvchi so‘zning ma'nosi bir necha so‘zlarda tushuntiriladi.

Commencement order (noun)	an order that brings an Act or part of an act into effect after the Royal Assent has been given	qirollik roziligi berilgandan keyin qonun yoki uning bir qismini kuchga kirituvchi buyruq
Commit (Verb)	to send a bill to a parliamentary committee to be reviewed He was committed for trial	Qonun loyihasini ko‘rib chiqish uchun

	at the Crown Court.	parlament qo'mitasiga yuborish.
Committee Stage	noun one of the stages in the discussion of a Bill, where each clause is examined in detail The Bill is at Committee Stage and will not become law for several months	Parlament uyidagi to'lov hisobi ikkinchi va uchinchi o'qish o'rtasidagi bosqich.

4. Eslatmalar. Eslatmalar malumotlarni kichik hajmda yozish va tarjima qilayotganda to'liqroq malumot berish va mazmuniy bog'liqliklarni va gaplar ketma-ketligini saqlashda yordam beradi. Ularni tarjimonga tushunarli tizimda kodlash deb atash ham mumkin chunki odatda har bir tarjimonning ma'lum birkimalar uchun maxsus belgilari bo'ladi. Leksik birliklarning eslatmalar orqali berilishi tarjimon uchun qulay bo'lib, jarayonda juda qo'l keladi. M: Samurai – Qadimgi yapon imperiyalarida jang san'ati ustalari, jangchilar. Odatda, milliy-madaniy leksik birliklarni eslatmalar orqali berishning to'rt turi mavjud: a) O'zgartirish usuli orqali: U olcha yemoqda – He is eating a fruit called olcha. b) So'z shakli yoki vazifasini tasvirlash usuli orqali: The queen of the UK came to India – the woman who ruled the UK came to India. v) Tasviriy tarjima usuli orqali: Ramazon hayitida O'zbekistonliklar ishga bormaydilar, dam oladilar – The people of Uzbekistan do not go to work and have a rest in Ramadan – Khait which is a holiday of moral purification and spiritual revival. g) qiyoslash usuli orqali: Men gummani pishira olaman – I can prepare gumma like patty in England. Ingliz tilidagi quyidagi leksik birliklar o'zbek tiliga eslatmalar orqali tarjima qilinadi va shu yo'sinda adekvatlikka erishiladi:

Conservative Party	noun the political party which is in favour of only gradual change in society, and against state involvement in industry and welfare	Konservativ partiya - jamiyatdagi faqat bosqichma-bosqich o'zgarishlar tarafdori va davlatning sanoat va farovonlikdagi ishtirokiga qarshi bo'lgan siyosiy partiya*.
--------------------	--	--



Consociation	a group of political parties or pressure groups that work together to share power	“Uyushma” hokimiyatni bo‘lishish uchun birgalikda ishlaydigan siyosiy partiyalar yoki guruhlar
--------------	---	---

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, tarjimada ekvivalentlik o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, u til sathlari bo‘yicha asliyat va tarjima matnlarining bir-biriga mosligini namoyon etadi. Ekvivalentlik tarjima usuli sifatida shakily, dinamik, funksional, madaniy hamda tasviriy ekvivalentlik turlariga tasniflanadi. Ularning har biri tarjimada leksik muammolarni bartaraf qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduganiyeva J.R. Consecutive Interpretation Quality Assessment Within Training Process. ЎЗМУ хабарлари. – Тошкент, 2023. – №1/7. – Б. 22-25.
2. Baker M. In Other Words. A course book on translation. Second edition. – London and New York. Routledge: Taylor and Francis Group, 2011. -232 p.
3. Catford J.C. A Linguistic Theory of Translation. – Indiana: Oxford University Press, 1965. – 236 p.
4. Halverson, S. The Concept of Equivalence in Translation Studies. Target1-2.1997. –PP. 207-233.
5. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: Fan, 2005. – 352 b.
6. Pym, A. Natural and Directional Equivalence in Theories of Translation. 1992. – 186 p.
7. Xoliyarov L. Nemis tilidagi evfemizmlarni o‘zbek tiliga tarjima qilishda muammolar va uning yechimlari. Proceedings Of The International Scientific-Practical Conference Translation Studies And Pragmalinguistic Development Tendencies: Problems, Solutions And Achievements, 2022. 411-415 betlar.

